



ICHKI ORGANLARIDA INSON HUQULARINI TA'MINLASH

B.A.Artikov

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi dotsenti

Turdiyoyev Jasurbek Ilxomovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17685959>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 15-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 22-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

inson huquqlari, hujjat, strategiya, strategik, taktik, operativ, tashkil etish..

ABSTRACT

Ushbu maqolada ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilinishi va uning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek inson huquqlarini himoya qilishni samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi. Maqolaning maqsadi – Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini tashkil etishga doir faoliyatni takomillashtirish hamda shunga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Avvalo, shuni qayd etishni istardimki, yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng har bir sohada tub islohotlar jarayoni boshlandi, — deydi Akmal Saidov. — Ayniqsa, inson huquqlarini ta'minlash borasida **1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining** O'zbekiston parlamenti tomonidan tasdiqlanganligi istiqolning ilk yillarida qabul qilingan muhim xalqaro huquqiy hujjat bo'ldi.

O'zbekistonda qisqa tarixiy muddat ichida milliy davlatchilikni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Mamlakatimiz barcha rivojlangan huquqiy davlatlardagi kabi uch hokimiyatga, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlandi. Xalq farovonligi yo'lida kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyati sari ildam qadam qo'yish maqsadida erkin bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyot barpo etildi. Shu tariqa, yurtimiz xalqaro huquqning to'laonli va teng huquqli sub'ektiga aylandi. Albatta, bularning barchasiga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning jonkuyarligi, tashabbuskorligi va rahnamoligi evaziga erishildi.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi Farmoni** bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Farmonda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo'yildi.

1996 yil 13 noyabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori Milliy markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu qaror orqali Inson

huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi to'g'risidagi Nizom va Milliy markaz tuzilmasi tasdiqlangan.

So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Shu o'rinda, xalqaro hamkorlik ham to'xtalib o'tish joiz. Xususan, BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi, EXHTning O'zbekistondagi Loyihalar Koordinator, Xalqaro mehnat tashkiloti, O'zbekistondagi Evropa Ittifoqi delegatsiyasi, YuNESKO, YuNISEF, Xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari, qator xalqaro jamg'armalarning vakolatxonalari bilan samarali hamkorlik o'rnatilgan. Xalqaro sheriklar bilan hamkorlikda respublikamizda inson huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash, himoya qilish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan turli loyihalar amalga oshiriladi.

O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning shakllanishi mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari doirasida davlat va jamiyatning barcha sohalarida demokratik islohotlar o'tkazish amalga oshirildi. Jumladan, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni** O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin. Prezident Farmonida inson huquqlarini himoya qilish tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlash, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy institutlar bo'linmalarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish ko'zda tutilgan.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadlarida milliy institutlarning qonunchilik asoslarini takomillashtirish O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligini yana bir karra namoyish qilmoqda.

2012 yil 24 dekabrda "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi **O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida**gi, 2016 yil 16 sentyabrda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, 2017 yil 7 sentyabrda "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 22-iyun 2020 yildagi PF-6012-son va boshqa normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq Inson huquqlarini himoya qilish sohasining huquqiy bazasi kengaytirildi.

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat. Ichki ishlar organlari o'z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish asosida amalga oshiradi.

Darhaqiqat, demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyatda qonunning chinakam hukmronligi ta'minlanishini taqozo etadi. Binobarin, huquqiy davlatning bosh ustuni ham barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga, Konstitutsiya va qonunlar ustunligiga so'zsiz erishishdir. Qonunlarga qat'iy rioya etilishi O'zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy umuman olganda jamiyatning barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishga imkon beradi. Qonunning kuchi, obro'si, ta'siri, amaliy ahamiyati hayotda uning odilona tatbiq etilishidadir. Har qanday boshqaruv qarori kabi ish rejasini ham tayyorlash va qabul qilish borasida bajarilgan operatsiyalar majmuidan so'ng, boshqaruv sub'yekti uning ijrosini tashkil qilish bo'yicha katta, har tomonlama va murakkab ishni amalga oshirishi kerak. Boshqaruv qarorining ijrosini tashkil qilish qabul qilingan qarorni muqarrar, aniq va o'z vaqtida hayotga joriy etishga qaratilgan boshqaruv siklining asosiy bosqichi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari davlat boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi vazifalarni bajaradi. Ushbu funksiyalarni samarali amalga oshirish uchun boshqaruv qarorlarini to'g'ri tashkil etish va ulardan oqilona foydalanish zarur. Boshqaruv qarorlari strategik, taktik va operativ darajalarga bo'linadi va har biri ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, qabul qilingan qarorning samaradorligi oxir-oqibatda uning amalga oshish darajasi bilan bog'liq. Hatto eng maqsadga muvofiq va maqbul qarorlar ham, agar ularning hayotga joriy etilishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tegishli tashkiliy ishlar amalga oshirilmasa, o'z-o'zicha boshqaruv maqsadlariga erishilishini ta'minlay olmaydi. Masalan, ichki ishlar organlarini boshqarishdagi ko'p bora ta'kidlangan salbiy omillardan biri ko'plab yaxshi va istiqbolli qoidalarni ishlab chiqish va ifodalash bilan bir qatorda, ularning ijrosini yetarli darajada tashkil qilmaslikdir. Boshqaruv qarorlarini ijrosini tashkil etish masalalari har doim huquqshunos olimlarning diqqat-e'tibori markazida bo'lgan. Yuridik adabiyotlarda «huquqiy normani amalga oshirish», «huquqni tatbiq etish», «huquqiy normalarni tatbiq etish», «huquqiy normani qo'llash» kabi tushunchalar yuzasidan yakdil fikr yo'q. Lekin huquqiy normalarni tatbiq etish – huquqiy normalarni amalga oshirishni anglatishi, aksariyat nazariyotchi olimlar tomonidan tan olinadi.

Ichki ishlar organlarida boshqaruv qarorlarini ijrosini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 24 dekabrda "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi, 2016 yil 16 sentyabrda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, 2017 yil 7 sentyabrda "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonunlari, 2015 yil 6 noyabrda "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qoidalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rish to'g'risida"gi 320-sonli hamda 2017 yil 30 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qo'shimchalar kiritish haqida"gi 881-sonli qarorlari bilan tartibga solingan.

Quyida Germaniya davlatining inson huquqlarini himoya qilish tizimiga oid ilg'or tajribalar keltirilgan:

Germaniya Ichki ishlar vazirligi (Bundesministerium des Innern und für Heimat, yoki qisqacha **BMI**) mamlakatning ichki xavfsizligi, konstitutsiyani himoya qilish, migratsiya va fuqarolik ishlari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Ushbu vazirlik doirasida **inson huquqlarini ta'minlash** Germaniya konstitutsiyasiga (Grundgesetz) va xalqaro majburiyatlariga asoslanadi.

Quyida bu tizimda inson huquqlarini ta'minlash qanday amalga oshirilishi haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan:

1. Konstitutsiyaviy asoslar

Germaniya asosiy qonuni (Grundgesetz) inson huquqlarining himoyasini kafolatlaydi:

1-moddasi: "Inson sha'ni daxlsizdir. Uni hurmat qilish va himoya qilish – barcha davlat hokimiyatining majburiyatidir."

Bu norma barcha davlat idoralari, shu jumladan Ichki ishlar vazirligi faoliyatining asosiy tamoyili hisoblanadi.

2. Politsiya va xavfsizlik xizmatlarining inson huquqlariga rioya qilishi

Ichki ishlar tizimidagi politsiya, migratsiya xizmati va konstitutsiyani himoya qilish idoralari (masalan, **Bundesamt für Verfassungsschutz**) o'z faoliyatida quyidagilarga rioya qilishlari shart:

- **Noqonuniy qamash, qiynoqlar yoki diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik**
- **Proportsionallik** (chora-tadbirlar ahamiyatli va zarur bo'lishi kerak)
- **Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish** (masalan, kuzatuv yoki ma'lumot to'plashda)

Ichki ishlar vazirligi migratsiya va boshpana siyosatini belgilaydi (masalan, **BAMF – Bundesamt für Migration und Flüchtlinge** orqali):

• Boshpana izlovchilarning huquqlari xalqaro huquq (masalan, 1951-yilgi BMT Qochqinlar Konvensiyasi) asosida himoyalanaadi.

• Qochqinlar insoniy sharoitda yashash, tibbiy xizmat va huquqiy yordam olish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Germaniyada inson huquqlarining buzilishi xavfi bo'lsa:

• **Sudlar va ombudsmanlar** orqali nazorat qilinadi.

• Shuningdek, **Fuqarolik jamiyati tashkilotlari** va **xalqaro inson huquqlari tashkilotlari** (masalan, Amnesty International) Ichki ishlar vazirligi siyosatini tanqidiy nazorat qiladi.

• Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi (ECHR)

• BMT Inson huquqlari deklaratsiyasi

• Boshqa ko'plab xalqaro shartnomalarga qo'shilgan bo'lib, Ichki ishlar vazirligi bu normalarga rioya qilishga majburdir.

Ichki ishlar organlarida inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlash to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish huquq-tartibot muassasalarining samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Qarorlarning asosli va strategik ravishda qabul qilinishi jamiyatda barqarorlik va huquqiy tartibni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan, inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlash tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish lozim. Shu bilan birga, xalqaro tajribalardan o'rganish orqali inson

huquqlarini himoya qilishni ta'minlash natijadorligi oshirilishi mumkin. Ichki ishlar organlarining samarali faoliyati jamiyatning tinchligi va farovonligiga xizmat qiladi, shuning uchun inson huquqlarini himoya qilishni ta'minlashni tashkil etish va ularni amalga oshirishga alohida e'tibor berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza / Postda. – 2016. – № 50.
2. Ichki ishlar organlarida boshqaruv va axborot-tahlil faoliyati asoslari: Darslik / I. Ismailov, D.S.Muxamadaliyev, E.U. Azizov; mas'ul muharrir B.A. Matlyubov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.
3. Yuldashev I. Меҳнат шартномасини ўзгартиришни расмийлаштиришни ҳуқуқий тартибга солиш //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. С7. – С. 255-261.

